O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Ijtimoiy - iqtisodiyot

Yo’nalish: Ijtimoiy ish

Fan: Ijtimoiy xizmat

# KURS ISHI

Mavzu: **SOSIAL XIZMAT**

Bajardi: Mamatov M

Tekshirdi: dost. Bo’riyev N.

Samarqand

**Mavzu: SOSIAL XIZMAT**

**Reja:**

**Kirish**

**Asosiy qism.**

1. Sotsial xizmatning faoliyat sifatida paydo bo’lishining tarixiy sabablari.
2. XIX asrda Yevropa, Amerika va Osiyoda sosial xizmatning rivojlanishi.
3. O’zbekistonda sosial xizmatning shakllanishi.

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

## Kirish

*Ijtimoiy ishning faoliyat turi sifatida yuzaga kelishidagi tarixiy shart-sharoit. Ijtimoiy ishning G'arbiy Yevropa va Amerikada kasb sifatida yuzaga kelishi. XX asrda ijtimoiy ishning rivojlanishi. AQShda ijtimoiy himoya tizimi. Yevropa ijtimoiy ta'minot tizimi. Rossiyada ijtimoiy ish. O'zbekistonda ijtimoiy ish.*

*Ijtimoiy ishning faoliyat turi sifatida yuzaga kelishining tarixiy sabablari.* Ijtimoiy ish ildizlari ijtimoiy hodisa sifatida inson va jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlariga borib taqaladi. Ijtimoiy yordamning tabiiy qalb hayajoni, o'zini boqa olmaydiganlarga g'amxo'rlikda ifodalangan dastlaki ko'rinishlari turli jamiyatlar, yuzaga kelgan an'analarga xos. Qadimgi Misrda ibodatxonalarda yordam marosimi amalga oshirilgan: muhtojlarga bepul non tarqatilgan. Qadimgi Yunoniston, so'ngra Qadimgi Rimda kambag'allarga non, kiyim-kechak, pul tarqatishda ifodalangan filontropiya g'oyasi keng tarqalgan.

Qadimgi slavyanlarda ijtimoiy himoyaning asosiy shakllari turli sakral atributlar orqali, jamoat - qavmni qo'llab-quvvatlash, shuningdek xo'jalik yordami, o'zaro yordam va qavm, oila, aholini himoyalash mavjud bo'lgan.

Sharqda ijtimoiy yordamning o'ziga xos mexanizmi va yorqin ifodalangan jamoa tuzilmasi yuzaga kelgan. Uning xususiyati shundaki, har bir inson o'zi mansub an'anaviy tuzilmalar himoyasida bo'lishi lozim. Bu tuzilmalar o'z a'zolarini qo'llab-quvvatlovchi oila va jamoani o'z ichiga oladi. O'rta Osiyo hududida qadimgi jamoa tarbiya, bekorchilik, ishga joylashtirish kabi muammolarning muhim qismini hal etgan va shaxs, oila, guruh darajasida ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha o'ziga xos jamoa markazi hisoblangan.

Ijtimoiy tadbirlar tizimi to'g'risida fikr yuritish imkonini beruvchi dastlabki yozma manba muqaddas kitob-Avesto hisoblanadi. Unda zardushtiylik dinini tan olgan davlatlar tuzumi va ijtimoiy siyosati to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Xayriya manzilli yordam usuli sifatida oddiy fuqarolar uchun muhim an'anaviy xulq-atvor qoidasi bo'lgan, din vakillari va hukmron tashkilotlar zimmasiga ijtimoiy xizmat vazifalari- qo'llab-quvvatlash, yordam ko'rsatish, xayriya tadbirlarini amalga oshirish yuklangan. Hukmdorlar, boy fuqarolar, ibodatxonalar xayriya tadbirlari uyushtirib, muhtoj va yetimlarga xayr-ehson tarqatganlar. Jamoalarda muhtoj oilalarga umumiy jamoa jamg'armasi hisobidan moddiy yordam ko'rsatilgan.

O'rta Osiyo xalqlari tarixida Musulmonlik davri ruhoniylarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini davom ettirdi va kengaytirdi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish vazifalari masjidlar, shuningdek diniy-jamoat hamjamiyatlari zimmasiga yuklangan.

Ijtimoiy yordam turlari alohida va jamoa shakliga ega bo'lgan. Yordamning keng tarqalgan alohida shakli har bir musulmon tomonidan islomning asosiy qonunlarini bajarish-muhtojlarga xayr-ehson va moddiy yordam ko'rsatish hisoblanadi. Jamoatchilik yordamining jamoa shakllari orasida keng tarqalgani – xashar-jamoa yordami, qurbonlik-xudoyi, tibbiy yordam, maxsus bepul shifoxonalar tashkil etish hisoblangan.

Ta'kidlash joizki, o'zaro yordamga intilish insonga xos xususiyatdir. Dunyodagi yetakchi dinlar asosida insonning diniy burchi, muhtojlarga insonparvarlik xizmati tizimi sifatida namoyon bo'lgan ijtimoiy yordam va xayriya markaziy o'rinni egallagan.

Nasroniylik tarqalgan davrda ijtimoiy masalalar yuzasidan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. 347 yilda Sardukiy mahalliy ibodatxonasi (Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy chegarasi)da kambag'allar, yetimlar, beva va darveshlarga yordam berish to'g'risida yigirmata cherkov qoidasi qabul qilingan. Shu

bilan birga, xayr-ehson tarqatish va kambag'allarni boqishda ifodalangan ochiq xayriya tizimi yetakchi o'rinni egallaydi[5].

Rossiyada davlat ijtimoiy himoya tizimi 1701 yilda Petr I tomonidan «Tabarruk Patriarx qarorgohida kambag'allar, bemor va qariyalar uyi ochish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilinishidan boshlanadi. Petr davrida dastlabki yetimlar uyi paydo bo'lib, davlat jamiyat zimmasiga kambag'allarni aniqlab, har bir muhtoj toifaga nisbatan ma'lum homiylik chorasini belgilashni yukladi.

XVI-XVII asrlarda G'arbiy Yevropada davlat ijtimoiy yordam tizimi rasmiylashtirilishi, davlatning roli ortishi va nasroniylik cherkovining faolligi kamayishi bilan xarakterlanadi. Shu tarzda, 1529 yilda Germaniyada kambag'allarga yordam berish to'g'risidagi Gamburg nizomi, 1682 yilda esa davlat xayriyasi to'g'risidagi farmon qabul qilinadi.

1531 yilda Angliyada kambag'allarga yordam berish to'g'risidagi Qonun qabul qilinib, 1572 yilda muhtojlarga yordam ko'rsatish uchun umummilliy soliq ta'sis etiladi. 1601 yilda Angliyada qabul qilingan kambag'allik to'g'risidagi Qonunda muhtojlarga moliyaviy yordam berishga urg'u berilgan. Bu qonun shu sohadagi qonunchilik rivojlanishi uchun asos bo'lib, hukumatning insonlar ehtiyojlari uchun javobgarligi shakllanishida burilish davri bo'lib xizmat qildi.

Ijtimoiy ishning faoliyat turi va kasb sifatida yuzaga kelishining tarixiy doirasini ma'lum muayyanlikda aniqlash mumkin. Shu qilib, ko'pgina tadqiqotchilar uni sanoatlashgan davlat rivojlanishining boshlag'ich davri bilan qiyoslaydilar. XVIII-XIX asr oxirlarida Yevropa mamlakatlari va Amerika nafaqat ishlab chiqarishni texnikaviy takomilashtirish, balki ijtimoiy muammolarning keskin kuchayishi: ijtimoiy differensiasiya kuchayishi, ishsizlik va jinoyatchilikning ortishi bilan davom etuvchi sanoat to'ntarishi yo'liga o'tdi.

Ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi kambag'allar muammosi yuzaga kelishiga olib keldi, u jamoatchilik fikriga ko'ra, barqarorlik va tartibga xavf soladi. Bu vaziyat nafaqat Yevropa mamlakatlari va Amerikada ijtimoiy sohadagi

[5] Кузбмин К.В., Сутўрин Б.А. История социальной работў за рубежом и в Росии (с древности до начала XX века). – М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2002, 11-б.

munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy qonunchilik yaratilishi, balki turli aholi guruhlarini empirik o'rganishda o'z aksini topdi.

XIX asr boshlaridayoq aholini ro'yxatga olish, tadqiq etishturli ijtimoiy muammolarni tahliliy yoritish amalga oshirila boshladi. Biroq XIX asr oxirliga kelib, ijtimoiy islohotchilar va xayriya tashkilotlari yetakchilari kambag'allarga yordam ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan kishilarga maxsus tayyorgarlik zarur, degan xulosaga keldilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida pozitivizm va liberalizm vakillarining qarashlari sanoati nisbatan rivojlangan mamlakatlarda davlatning shaxs oldidagi javobgarligi va ma'naviy burchi to'g'risidagi tushuncha shakllanishiga sabab bo'ldi. Unga ko'ra davlat kishalarning farovon turmush kechirishlari uchun hamma sharoitlarni yarati bera olmaydi.

Ijtimoiy ish rivojlanishida uch bosqichni farqlash mumkin. Birinchi bosqich ijtimoiy ishning kasb sifatida yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi bosqich - XX asrda Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy ish kasbining institutga aylanishi bilan. Uchinchi bosqich ijtimoiy ishning jahon bo'ylab tarqalishi bilan xarakterlanadi.

*Ijtimoiy ishning kasb sifatida G'arbiy Yevropa va Amerikada yuzaga kelishi.* XIX asrda ijtimoiy ishning professional faoliyat turi sifatida yuzaga kelishi Yevropa mamlakatlarining tezkor sanoatlashuvi va aholisi soni ortishi natijasida paydo bo'luvchi ijtimoiy muammolarning keskinlashuvidan xavotirlanuvchi filantropiya jamiyatlari faoliyatiga yaqinlashdi.

Kishilar biror-bir maxsus tayorgarliksiz ham xayriya faoliyati bilan shug'ullanganlar. XIX asrning birinchi yarmida bu sohada yirik jamoatchilik tashkilotlari shakllana boshladi, ular din vakillari va xususiy shaxslar bilan birga ijtimoiy muammolarni hal etishga harakat qildi.

1866 yilda Stokgolmda Homiylik jamoatchilik uyushmasi tuziladi. 1869 yilda Londonda Xayriya jamiyati (The Charity Organization Society) tashkil etildi. U ko'rsatilayotgan yordamni muvofiqlashtirish vazifasini bajarardi.

Germaniyada ishchilarning keskin kambag'allashuvi natijasida davlatning ijtimoiy ta'minotiga ehtiyoj paydo bo'ldi, chunki cherkov va xususiy xayriya muassasalari ijtimoiy sohadagi resurslar ta'minotida yuzaga kelgan muammolarni hal eta olmay qoldilar. 1880 yilda Germaniya xayriya kongressi tashubbusiga binoan Germaniya kambag'allarga g'amxo'rlik xayriya uyushmasiga asos solindi. Jahonning boshqa mamlakatlarida ham shunday tashkilotlar tuzildi.

AQShda ijtimoiy ishning kasb sifatida yuzaga kelishiga muhtojlar foydasiga xayr-ehsonlar soni ortishi sabab bo'ldi. Diniy, dunyoviy, tadbirkorlik, volonterlik, hukumat va boshqa xayriya guruhlari kambag'allar uchun pul, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va turar joy ajratardi. 1890-yillar boshida yirik shaharlarda xayriya tashkilotlarining ishini yo'naltiruvchi tashkilotlar tuzila boshladi. Ular mahalliy xayriya faoliyatini shahar hokimiyati vakillari, mahalliy tadbirkorlar, cherkov xodimlari va siyosiy yetakchilardan iborat direktorlar kengashi yordamida muvofiqlashtirardi.

1880-yillarda emigrantlar soni ortgan shaharlarda boshlangan «Uyga ko'chish harakati» AQShdagi professional ijtimoiy ish uchun zamin yaratdi. Bunda Chikagoda Jeyn Addams asos solgan Xall uyi juda mashhur edi. «Kambag'allar orasida yashash» dan ma'no topgan boshqa o'qimishli ayollar uning safdoshlari edilar. Ular shaharning kambag'al emigrantlar mavzelarida maxsus uylar ochib, u yerda mashg'ulotlar o'tkazar, kambag'al emigrant bolalari va mazkur hududda yashovchi oilalarga maslahatlar berardilar[6].

Bir vaqtning o'zida faoliyatning yangi shakllari: masalan, settlmentlar harakati (The srttlement house movement)-AQSh va Angliyada immigrantlar uchun turar joylar tashkil etish. Germaniya, Finlyandiya, Shvesiyada davlat xodimlarining qisman ishtirokida kambag'allarga yordam ko'rsatishning Elberfeld tizimi (Elberfeld System)[7].

Elberfeld tizimi nomi u qo'llangan shaharning nomida kelib chiqqan, uning prinsiplari asosida quyidagilar yotadi:

---

[6] Русин Т. Профессия социального работника в США. В кн.: Гендернўй колейдоскоп. – М.: Академия, 2002, 504-505-б.

[7] Социальная работа: теория и практика. – М.: ИНФРА, 2002, 385-б.

- xususiy masalalarni ko'rib chiqish va ishlarning umumiy yo'nalishini markazlashtirishda har bir homiylikning mustaqilligi;

- har bir muhtojning holatini to'liq ko'rib chiqishda yordamni alohidalashtirish;

- kambag'allarga yordam berishga jamiyatning hamma qatlamlarini faol jalb etish.

Vaqt o'tishi bilan faoliyatning usul va shakllari o'zgardi, lekin ijtimoiy ishning asosiy prinsipi ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'lib qoladi[8].

Bu davrda Buyuk Britaniyada kambag'allik bo'yicha qo'llanmalar chiqarildi. 1834 yilda esa kambag'allarga yordam ko'rsatishni qat'iy tartibga solish asosidagi maxsus qonunchilik (Poor Laws) yuzaga keladi. XVIII asr o'rtalarida kambag'allarga yordam ikki yo'nalishda: bemorlarga xayriya va kambag'allarga yordam amalga oshiriladi. 1847 yilda kambag'allarga yordamning shakl va usullari to'g'risidagi qarorlar bu yo'nalishdagi yangi qadam bo'ldi. Keyingi munisipal islohotlar 1862 yilda kambag'allarga yordamni cherkovdan ajratdi, natijada ular munisipal obyektga aylandilar[9].

Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida sudlangan va qamoqdan ozod etilganlarga davlat yordami; bemorlarni parvarish qilish, ko'r va karlarga maxsus yordam; aholiga majburiy davlat-munisipal ta'limi berish; ish bilan ta'minlash va hokazolar bo'yicha xususiy va munisipal vositachilikning maxsus shakllari yuzaga keladi. Shu tarzda, 1880 yilda Germaniya xayriya kogressi tashabbusi bilan Germaniya kambag'allarga g'amxo'rlik xayriya uyushmasiga asos solindi. 1919 yilda u Germaniya davlat va xususiy homiylik ittifoqiga o'zgartirildi.

Ijtimoiy qonunchilik bu soha boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat idoralari, shuningdek unga bo'ysunuvchi muassasalar ish yuiritishi lozim bo'lgan huquqiy doiralarni o'rnatardi. Bu muassasalarning boshqaruv apparati ham, xayriya tashkilotlari a'zolari ham yordamga muhtoj kishilarga yordam ko'rsatish bo'yicha ma'lum bilimlarga ham ega emasdilar.

---

[8] Социальная работа. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003, 40-б.
[9] Теория социальной работӯ. – М.: Юрист, 1998, 17-б.

XIX asr oxiriga kelib, xayriya sohasida yirik jamoatchilik tashkilotlari tuzilib, ularning ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha intilishlari cherkov va xususiy shaxsalar faoliyati bilan to'ldirildi. Angliya va AQShda ular yordamga muhtojlar bilan bevosita shug'ullanuvchi xayriyani tashkil etish jamiyatlari sifatida taqdim etildi.

Xayriya sohasidagi beqiyos muvaffaqiyatlariga qaramay, bu soha vakilariga professionalizmning yetishmasligi ijtimoiy muammolarni hal etishda kishilarga samaraliroq yordam berish imkonini bermasdi. Shu bilan birga, davlat ta'minotiga ham ehtiyoj yuzaga keldi, chunki diniy tashkilotlar va xayriya muassasalari ijtimoiy sohadagi katta xarajatlarni eplay olmay qoldi.

XIX asr oxirida Yevropa mamlakatlari va Amerikada yuzaga kelgan muhtojlarga davlat yordami tizimi ikki asosiy element: qonunchilikni rivojlantirish va maxsus idora va muassasalar yaratishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy xodimlarni tayyorlovchi dastlabki o'quv muassasalari xayriya tashkilotlari tomonidan tuzilgan. 1896 yilda deyarli bir vaqtda Angliya va Germaniyada kurslar ochildi. 1898 yilda AQShda Nyu-York filantropiya maktabida ijtimoiy xodimlar tayyorlana boshladi. Keyinchalik u Kolumbiya universitetining ijtimoiy ish maktabiga aylanib, muhtojlarga yordam berish bilan shug'ullanuvchilar uchun bir yillik ta'lim dasturini taklif etdi.

1903 yilda Grem Teylor va uning hamkasblari tomonidan tashkil etilgan Chikago fuqarolik huquqi va filantropiya maktabi ham shunday dasturni taklif etgan. Vaqt o'tishi bilan u ijtimoiy xizmat boshqaruvi maktabi nomini olgan Chikago universitetining bo'limiga aylandi[10].

G'arb mamlakatlari jamoatchiligi ongida muhtojlarga professional yordam g'oyasi yanada aniq anglandi. Bu g'oya XIX asr oxirlaridayoq amalga oshirila boshladi. 1899 yilda Ijtimoiy xodimlar tayyorlash institutiga asos solgan Amsterdamdagi ijtimoiy islohotchilar guruhi ijtimoiy xodimlarni tayyorlash bo'yicha jahonda birinchi institutga asos solish sharafiga erishdilar. Institut dasturida o'zlarini

[10] Агапов Е.П. Социальная работа как феномен культурӯ. – Ростов-на-Дону: Изд-во, ростовского государственного педагогического университета, 1999, 57-б.

ijtimoiy ishga bag'ishlashni istagan erkak va ayollar uchun ikki yillik kunduzgi nazariy ta'lim va amaliy tayyorgarlikning to'liq kursi ko'zda tutilgan.

*XX asrda ijtimoiy ishning rivoji.* XX asrning birinchi yarmi davlatning o'rni kuchayishi va «umumiy mehr-muruvvat jamiyati» nazariyasi va amaliyoti rivojlanishi bilan izohlanuvchi ijtimoiy ishning institusionallashuvi bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy xodimlar professional faoliyati ibtidosini, odatda, ularning asosiy huquq va majburiyatlari shakllanishi, mehnatga rasmiy haq to'lash, o'quv muassasalari, professional tashkilotlar yaratilishi hisoblanadi. Avval ta'kidlab o'tilganidek, garchi professional ijtimoiy xodimlarni tayyorlashni boshlagan dastlabki maxsus o'quv muassasalari Niderlandiya, so'ngra AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniyada yaratilgan bo'lsa-da, «ijtimoiy xodim» kasbi dastlab AQShda, so'ngra G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy nufuzga ega bo'ldi.

Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda ijtimoiy ish maktablari Osiyoning ko'pgina mamlakatlari, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Sharqiy Yevropa mamlakatlari va keyinchalik – Afrika mamlakatlarida ochildi.

1910 yilda yangi harakat Yevropa va Amerikadagi 14ta ijtimoiy ish maktabini ta'limga jalb etdi. 1920 yilda Chilida Lotin Amerikasidagi birinchi ijtimoiy ish maktabi ochilgan edi[11].

30-yillarda ijtimoiy xodimlarni tayyorlovchi mamlakatlar soni orta boshladi. Uchinchi dunyo mamlakatlarining an'anaviy iqtisodiyotdan ajralib, bozor munosabatlari tizimiga asta-sekin o'tishi natijasida Sharq mamlakatlarida ham ijtimoiy ish tarqala boshladi. 1936 yilda Hindistonda ijtimoiy fanlar instituti ta'sis etildi, Misrda esa dastlabki ijtimoiy ish kurslari yuzaga keldi. Shu tarzda, maxsus tayyorgarlik va moddiy mukofotlashga moslashgan holda muhtojlarga yordam ko'rsatish kasbga aylana boshladi.

Dastlabki ijtimoiy xodimlar immigrantlarni ingliz tiliga o'qitishdan to sanoatlashgan jamiyatda ishga joylashish uchun zarur ko'nikmalarni egallashda yordam ko'rsatishgacha bo'lgan keng miqyosli muammolar bilan shug'ullanganlar.

---

[11] Социальная работа как профессия (аналитический обзор) // Ж. Социологические исследования. – М., 1992. №3, 91-б.

Ular ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish va kishilarga o’z muammolarini hal etishda yordam berishga intilganlar.

Ijtimoiy xodimlarning professional manfaatlarini ifodalagan birinchi tashkilot Amerika Qo’shma Shtatlarida paydo bo’lgan. U 1917 yilda yaratilgan Ijtimoiy xodimlar milliy birjasi edi. Keyinchalik ijtimoiy xodimlar (tibbiyot xodimlari, o’qituvchilar)ning boshqa professional tashkilotlari yuzaga keldi. 1921 yilda ular birinchilar qatorida rasmiy ro’yxatga olingan Amerika ijtimoiy ish assosiasiyasiga birlashdi.

Ijtimoiy ishning tashkiliy tuzilmasini yaratish jarayoni boshqa G’arb mamlakatlarida ham tarqala boshladi. 1928 yilda Parijda Ijtimoiy farovonlik xalqaro kengashiga birlashgan Yevropaning yetti mamlakati milliy assosiasiyasi yaratildi.

Hozirgi ijtimoiy xodimlarning dastlabki vakillarining intilishlari muhtojlarga yordam ko’rsatishga yo’naltirilgan edi. XX asrga kelib, ijtimoiy ta’minot usullarini yoritish va tahlil qilishga jiddiy e’tibor berila boshladi, xayriya va jamoatchilik tashkilotlari ularga amal qilgan holda o’z maqsadlarini jamiyatning maqsadlariga mos ravishda amalga oshirishi mumkin edi. AQShda Meri Richmond bu ishni birinchilardan bo’lib amalga oshirdi. U xayriyani shaxs va uning oilasiga e’tibor qaratgan holda usul bilan birlashtirdi.

Richmond 1915 yilda chop etilgan «Ilmiy ijtimoiy ish» (Nauchnaya sosialnaya rabota) asarida ijtimoiy ish sifatini baholash, ijtimoiy xodimlar hal etishi lozim bo’lgan ijtimoiy muammolar tashxisi sxemalari to’plamini taklif etdi. Bu xayriyaning turli shakllarini anglashga tayanuvchi etika-terapiya ijtimoiy ishi yaratilishiga olib keldi.

Yangi usul olima tomonidan 1917 yilda «Ijtimoiy tashxis» ( Sotsialno’y diagnoz) kitobida to’liq yoritilib, ijtimoiy ta’minot dasturi samaradorligini oshirishga sabab bo’ldi. Meri Richmond o’z usuli-mijozni shaxs sifatida baholash bilan birga uning ijtimoiy holatini ham ko’zda tutishning ijtimoiy tashxisini to’liq bayon etgan. M. Richmond keyinchalik terapiya nomini olgan bu ijtimoiy ish modelining asoschisi hisoblanadi.

Bu modelga ko’ra, har bir alohida holatni baholash, ijtimoiy tashxis qo’yish va shu asosda davolash usulini tanlash ijtimoiy xodim faoliyatidagi muhim masala hisoblanadi. Richmond kambag’allikni kasallik hisoblab, shifokor va ijtimoiy xodim faoliyati o’rtasidagi o’xshashlikni tadqiq etdi.

U ijtimoiy yordamni ma’lum choralar yig’indisi sifatida ko’rib chiqadi, uning natijasi esa mijoz va uning ijtimoiy begonalashuvini o’zgartirish hisoblanadi. Meri Richmond ijtimoiy chora-tadbirlarni ikki o’zaro bog’liq: bilvosita davolash usuli va bevosita davolash usuliga ajratadi. Bilvosita davolash usuli insonning tashqi muhitga ta’siridan, bevosita davolash usuli mijozga qarorlarni ishlab chiqishda faol harakatga yo’naltirish maqsadida ta’sir etishdan iborat. Bu klassik ishda quyidagilar bayon etilgan: «Yaxshi ijtimoiy xodim kishilarni nochorlikdan qutqarish bilan shug’ullanmay, undan xoli etish yo’llari haqida o’ylaydi»[12]. M. Richmonddan so’ng «o’rganish, tashxis, davolash» paradigmasi ijtimoiy ishning asosiga aylandi.

20-30-yillarda Z. Freyd va uning izdoshlarining ruhiy-tahliliy g’oyalari ijtimoiy ish ruhiy-dinamik nazariyasini asosiy o’ringa olib chiqdi. Virjiniya Robinson «Ijtimoiy vaziyatda o’zgaruvchi ruhiyat» (Izmenyayuhayasya psixologiya v sosialnom sluchaye) asarida faoliyat ijtimoiy usulini ruhiyat nuqtai nazaridan yangicha anglashni birinchi bor kashf etdi.

XX asrning birinchi yarmi ruhiy davo usullari va ruhiy tahlil ustunligida o’tdi. Bu davrda ijtimoiy ish biologiya, iqtisodiyot, tibbiyot, ruhshunoslik, sosiologiya, statistika, anropologiya, pedagogika, ijtimoiy ruhshunoslikka tayanishi lozim deb hisoblanardi. Keyinchalik ham bu ro’yxat uncha o’zgarmadi.

XX asrning ikkinchi yarmida tizimli va har tomonlama yondashuv asosiy hisoblana boshladi. Bu davrda ijtimoiy xodimdan bir sohadagi tor ixtisos emas, balki universallik, turli soha va usullarni moslashtira olish talab etilardi. Shu bilan birga, uslubiy madaniya, ishonchli empirik ma’lumotlarga ehtiyoj paydo bo’ldi.

*AQShda ijtimoiy himoya tizimi.* Sosiologlarning fikriga ko’ra, ijtimoiy og’ishlar va farovonlik susaygan davrlarda ijtimoiy autsayderlarga taalluqli aholi guruhlariga e’tibor ortadi. 30-yillardagi buyuk turg’unlik davri va keyinchalik 60-70-yillarda

---

[12] Цит. По ст. «Социальная работа как профессия» // Ж. Социологические исследования. – М., 1993. №3, 91-б.

ijtimoiy muammolar kishilar ommasini qamrab olgan paytda ijtimoiy xodimlar har tomonlama yondashuv yordamida kishilarning ko’pgina muammolarini hal etishga erishdilar. AQSh Prezidenti F. Ruzveltning bosimi ostida ishsizlikka birinchi bor milliy muammo sifatida yondashildi va Favqulodda yordam bo’yicha muvaqqat boshqarma tuzildi.

Boshqarma xususiy xizmatlardan F. Ruzveltning zamonaviy Amerikani isloh etgan mashhur «Yangi kurs»i asosiga qo’yilgan davlat dasturini ishlab chiqish uchun yaxshi mutaxassislarni taklif etdi. F. Ruzveltning fikricha, ishsizlarga davlat tomonidan yordam – xayriya sifatidagi sadaqa emas, balki taraqqiy etgan jamiyatda har bir fuqaro huquqida minimal turmush darajasini hisobga olishga asoslangan ijtimoiy adolat.

1964 yilda AQSh Prezidenti L. Jonson yangi iqtisodiy va siyosiy vaziyatdagi «Buyuk jamiyat» dasturi doirasida Senat va Kongress Vakillari Palatasiga sanoatlashgan davr bilan va kambag’allik bog’liq muammolarga yo’naltirilgan qator qonun loyihalarini taklif etdi. Kambag’allikka olib keluvchi ko’pgina qiyinchiliklar mehnat resurslari muhofazasi bo’yicha maxsus prezident komissiyasi «Millatning uchdan bir qismi: harbiy xizmatga yaroqsiz yosh yigitlar to’g’risida» gi ma’ruzasidan ham ma’lum edi. U, boshqa ma’lumotlar qatorida «Iqtisodiy imkoniyatlar to’g’risida» gi qonunga asos bo’lib xizmat qildi.

Hozirgi vaqtda AQShda ijtimoiy ishning mazmuni muhim tarzda o’zgarmoqda. Aqli zaif mijozlar bilan ishlashga e’tibor kuchaymoqda va kambag’allik muammolari bilan shug’ullanuvchi ijtimoiy xodimlar soni kamaymoqda. 1995 yildayoq, professional ijtimoiy xodimlarning 47 %i ishining mohiyati to’g’risidagi savolga javob tarzida, asosan, oila a’zolarining individual xatti-harakatlari yoki oiladagi munosabat muammolari bilan shug’ullanayotgani haqida so’zlaydi.

2,5 %dan kamrog’i esa, daromad, turar joy, bandlik sohasidagi muammolarni hal etish, shuningdek jinoyatlar, narkotik va alkogol iste’mol qilishdan ogohlantirish bilan bog’liq faoliyatni ta’kidlagan. Turmushning ijtimoiy sharoitlarini o’zgartirish bilan bog’liq faoliyatga qiziqish ikkinchi darajada qolayotgan bir paytda, ijtimoiy ish

bo’limlari bitiruvchilarida, jumladan, ruhiyat tahlili va ruhiyat terapiyasi sohasidagi ixtisoslikka katta qiziqish namoyon bo’lmoqda.

So’nggi o’n yilliklarda AQShda ijtimoiy xodimlarning sektorlar bo’yicha bandligi tuzilmasida sezilarli o’zgarishlar kuzatilmoqda. Mamlakatda o’tkazilgan so’rovlarga ko’ra, ijtimoiy xodimlarning ko’pchiligi jamoatchilik sektoridan ketib qolmoqda. Avval ularning 51 %i ommaviy (federal, davlat, mintaqaviy, munisipal) sektorda mehnat qilgan bo’lsa, hozirda bu vaziyat o’zgardi-xususiy tijorat sektorida bandlar soni uch marta ortdi.

AQShda ijtimoiy servisning katta qismi ixtiyoriy birlashmalar (MIB) tomonidan, biroq ko’pincha hukumat bilan shartnoma bo’yicha ta’minlanadi. Ko’pgina xususiy amaliyotlar ham aynan shunday, hukumat tomonidan ajratiladigan sug’urta orqali to’lanadi.

Turli birlashmalar, kichik va yirik firmalar vaziyat bilan ishlagan holda yakka tartibda ishlaylidi yoki ijtimoiy ishni amalga oshirishga mo’ljallangan hukumat shartnomalarini izlaydi. «Xususiy amaliyot» bilan shug’ullanuvchi ijtimoiy xodimlar soni 1982-1995 yillarda 11dan 20 % gacha ortdi. Ijtimoiy xodimlar-ning 45 %i ikkilamchi bandlik, ya’ni to’liq bo’lmagan ish kuni amaliyotidan foydalanganini ta’kidlaydi. Shaxsiy amaliyotda mijoz ijtimoiy xodimni, odatda uning har bir soatiga haq to’lagan holda yollaydi[13].

Zamonaviy ijtimoiy xodimlarga qo’yiladigan talablar sezilarlicha ortib, o’z ichiga ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarni yengillashtirish dasturini oladi. Ijtimoiy ish ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy siyosatning tarkibiy qismi bo’lib, ijtimoiy ofatlarni bartaraf etish va yengillashtirish, muvofiq ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ta’minot rivojiga yo’naltirilgan.

Hozirgi paytda, Pensilvaniya Universiteti ijtimoiy ish maktabi asoschisi Elizabet Smoliyning fikricha, ijtimoiy ish amaliyoti ijtimoiy farovonlikning demokratik prinsiplarini aholi yuqori qatlamining muhtojlarga «sovg’asi» emas, balki «huquq» sifatida aks ettira boradi. Shu bilan birga, ijtimoiy xodimlar o’zlarini kishilarga yordam, ijtimoiy keskinlikni an’anaviy tushunish bilan identifikatlaydilar. Insonning

[13] Русин Т. Профессия социального работника в США. В кн. Гендернўй калейдоскоп. – М.: Академия, 510-511-б.

boshqa kishilar va jamiyatga, shuningdek jamiyatning shaxslar va guruhlarga munosabati asosiyligicha qolmoqda[14].

Amerika ijtimoiy himoya tizimi ikkita aniq yo'nalish: ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordam tizimlariga ega. Ijtimoiy sug'urta dasturlari yuqori ijtimoiy mavqyega ega, chunki maoshga yashovchilar muvofiq jamg'armalarga soliq to'laydilar. Bu tizim iqtisodiy jihatdan faol aholini asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xatarlar: qarilik, boquvchisini yo'qotish, nogironlik, kasalliklar, ishlab chiqarishda jarohatlanish, ishsizlikdan himoyalaydi.

AQShdagi ijtimoiy himoya tizimining ikkinchi yo'nalishi ijtimoiy yordam hisoblanadi. Ijtimoiy yordam tizimi bir necha yirik va ko'pgina kichik dasturlarni o'z ichiga oladi. Bu dasturlarga ko'ra, kambag'allikda yashovchi kishilar pul nafaqalari, oziq-ovqat, subsidiyalanuvchi turar joy, ta'lim olish va professional tayyorgarlik uchun yordam oladilar. Rasmiy o'rnatilgan kambag'allik darajasidan past darajada yashovchi kishilar ijtimoiy yordam olish huquqiga ega. AQShdagi aholining umumiy sonida bular 12-15 %ni tashkil etadi.

Eng ommabop moddiy yordam dasturlaridan biri Welfare («Velfer»), «farovonlik», «ta'minot», «nafaqa» ma'nosini anglatadi. Dasturning boshqa nomi-Public Assistance. Dastur federal hokimiyat tomonidan moliyalashtiriladi, ba'zan esa shtat va shahar byudjetidan to'ldiriladi. Ijtimoiy ta'minot dasturidan nafaqa olish sharti turli vaziyatlar (ishsiz qolish, kichik yoshdagi bolali yolg'iz ona (ota), ishsizlik bo'yicha nafaqaning yo'qligi)ga ko'ra ma'lum darajada doimiy daromad manbai yo'qligi hisoblanadi.

SSI (Supplemental Security Income)-qariyalar (65 yoshdan yuqori), nogironlar, kam daromadga ega bemorlarga pulli yordam federal dasturi.

Medikeyd (Medicaid)–kam daromadli kishilar yoki oilalarga tibbiy yordam dasturi. U federal hokimiyat tomonidan subsidiyalanadi, lekin shtatlar qonunlari yordamida tartibga solinadi. Medikeyd ma'lum chegaralarda dorilar, shifoxonada yotish, tez yordam chaqirish, shifokor huzuriga tashrif, maxsus poyafzal, tibbiyot uskunalari va hokazolarga pul to'lash imkonini beradi. Odatda «Velfer» va SSI

[14] Ruth Elizabeth Smaliey. Theory for social work practice. Columbia University press. – New York and London, 1967. Preface, viii.

dasturi bo’yicha to’liq yordam oluvchilar, Medikeytdan ham yordam olish huquqiga ega.

*Yevropa ijtimoiy ta’minot tizimi.* Turli mamlakatlardagi ijtimoiy qo’llab-quvvatlash tizimi hal etiladigan vazifalarning o’xshashligiga qaramay, tarixiy shart-sharoit, shuningdek muammolarni hal etishdagi yondashuv va usullardagi farqlarni hisobga olgan holda yuzaga keladi. Yevropa mamlakatlaridagi ijtimoiy ta’minot tizimi AQSh ijtimoiy ta’minot tizimidan ijtimoiy siyosat yo’nalishlarini aniqlash, rejalashtirish, moliyalashtirish va turmushga tatbiq etishda davlatning ishtiroki yuqori darajadaligi bilan farq qiladi.

Bunda ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishda o’z-o’zini boshqarish mahalliy organlari muhim o’rin tutadi. Yevropa ijtimoiy himoya modelining farqli jihati, jumladan, turli ijtimoiy xizmatlar va yordam turlari bilan aholini to’liq qamrab olish hisoblanadi.

Yevropa ijtimoiy himoya modeli insonning «tabiiy huquqlari» konsepsiyasi asosidagi umumiy farovonlik davlati nazariyasiga asoslanadi. Bu nazariyaning asosiy maqsadi fuqarolar uchun hayotiy rejalarni amalga oshirish, ular uchun yetarli turmush darajasini yaratish, ijtimoiy tenglik va adolat shakllanishiga intilish uchun deyarli bir xil dastlabki imkoniyatlarni yaratishni ko’zda tutadi. Umumiy farovonlik davlati fuqarolarga rivojlangan ijtimoiy yordam tizimini shakllantiradi, tibbiy, ruhiy, yuridik va boshqa hayotiy muhim xizmatlarni ta’minlaydi.

«Umumiy farovonlik jamiyati» tushunchasi Ikkinchi jahon urushidan so’ng taomilga kirdi. Biroq 70-80-yillar boshida bu nazariya tanqidga uchradi. Buning sababi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va kishilar, ijtimoiy guruhlar va umuman aholi ehtiyojlari o’zgarishidan iborat. Rivojlangan mamlakatlar yetakchi ekspertlarining fikricha, 80-yillarning ikkinchi yarmida G’arb mamlakatlaridagi ijtimoiy ta’minot tizimi ijtimoiy to’lov turlari yordamida aholini qamrab olish bo’yicha qo’yilgan vazifani bajardi.

90-yillarda iqtisodiy rivojlanishning o’zgaruvchan sharoitlari, resurslarning cheklanishi ortishi, ishsizlikning yuqori darajasiga bu tizimning moslashuv vazifasi avvalgi o’ringa chiqdi. Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy ta’minot tizimi afzalliklari

o'zgarishini balgilovchi omillar orasida tug'ilishning kamayishi va hayot davomiyligi ortishi natijasida aholining tez qarishi jarayoni kuzatilmoqda.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida yuz berayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar qator davlat ijtimoiy dasturlarining yig'ilib qolishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiy tushkunlik, byudjetlarning tanqisligi ortishi, ishsiz va kambag'allar, to'liqsiz oilalarning soni ortishi, aholining qarishi hamda boshqa omillar davlat ijtimoiy siyosatidagi o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Shu bilan birga, hyech qaysi G'arbiy Yevropa mamlakati «farovonlik davlati» dan to'liq voz kechmadi. Bu vaziyat kishilar ongiga davlat muhtojlarga g'amxo'rlik qilishi lozim, degan fikr singishiga sabab bo'ldi. Turli yo'nalishdagi siyosatchilar G'arb mamlakatlari ijtimoiy ta'minot tizimidagi islohotlarning davom etishi zaruratini tan olishga majburlar.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari hukumatlari tomonidan «farovonlik davlati» islohoti bo'yicha ko'rilayotgan choralar ijtimoiy ta'minot, bu sohadagi korrupsiya va qog'ozbozlikning kuchayishi bilan bog'liq moliyaviy yo'qotishlarga davlat mablag'lari sarflanishi ustidan qat'iy nazoratni o'rnatishga yo'naltirildi. Nodavlat pensiya jamg'armalari yaratishni moliyalashtirish uchun soliq imtiyozlari taqdim etilmoqda.

Nafaqalarni tayinlashda ularni olishga talabgorlar tekshiriladi, avvalgi ko'pgina bepul xizmatlar pulli bo'lib, davlat stipendiyalari zaymlar bilan almashtiriladi. Ba'zi mamlakatlarda pensiya yoshini oshirish to'g'risidagi masala ko'rib chiqiladi[15].

GFR Konstitusiyasida «ijtimoiy davlat», ijtimoiy yordam atamasi mavjud – bu mamlakatdagi alohida shaxslarning murakkab holatdan chiqishi uchun xizmat qilgan ijtimoiy kafolatlar tizimining asosiy qismi, shu maqsadlar uchun mavjud zarur muassasa va xizmatlar. Ijtimoiy ta'minot tizimidan tashqarida bo'lgan ijtimoiy xizmatlar ham ijtimoiy yordam deb ataladi. Umumiy xarakterdagi bu xizmatlar: davlat dotasiyasi sifatida turar joyga, ko'p bolali oilalarga - bolalar, kam ta'minlanganlarga – ta'lim olish uchun pul ajratish.

---

[15] Социальная работа. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003, 37-38-б.

GFRda ijtimoiy xizmatlar deganda ijtimoiy jihatdan sust himoyalangan aholi qatlamlariga fuqarolarning turmush darajasini tenglashtirishga yo’naltirilgan xizmatlar ko’rsatish tushuniladi. Fuqarolar, shuningdek GFRda yashovchi xorijliklar uchun tug’ilgan vaqtidan e’tiboran kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar tizimi mavjud.

Ta’kidlash joizki, GFRdagi ijtimoiy xizmatlar notijorat muassasalarida bo’lgan, ya’ni federal taqsimot jamg’armasidan moliyalashtiriluvchi xizmatlar hisoblanadi. Germaniyadagi ijtimoiy xizmatlarga xarajatlar byudjetdan ijtimoiy ehtiyojlarga xarajatlarning o’ndan bir qismini tashkil etadi. Manmunan ijtimoiy xizmatlar: maslahatli, tibbiy, axborotli, huquqiy, umumiy parvarish bo’yicha, tashkiliy bo’lishi mumkin.

Hozir Germaniyada muhtojlarga moliyaviy xizmatlar bilan chegaralanmaydigan ijtimoiy yordam tizimi isloh etilmoqda. Davlat ijtimoiy xodimlar oldiga ijtimoiy yordam turiga ko’ra, ishsizlarni  mehnat bozorida yuz beruvchi jarayonlarga kiritish vazifasini qo’ymoqda. Ijtimoiy davlatni rivojlantirishning ijtimoiy ta’minot sohasidagi o’z-o’zini boshqarish, qarilikni ta’minlash, xayriya yordami tizimini rivojlantirish kabi prinsiplari ham amalga oshirilmoqda.

*Rossiyada ijtimoiy ish*. Rossiyadagi ijtimoiy ish muhtojlarga yordam ko’rsatish faoliyati sifatida uzoq o’tmishga ega. U davlat, turli jamoatchilik guruhlari, ijtimoiy soha tadqiqodchilari tomonidan obyektiv zarur hodisa, XX asrning 90-yillari boshidan esa, ijtimoiy hayot amaliyoti sifatida ko’rib chiqiladi. Bu yillardagi ijtimoiy siyosatning muhim yo’nalishlaridan biri aholiga ijtimoiy xizmat ko’rsatish tizimining rivojlanishi, aholi bilan ishlashda zamonaviy texnologiya va usullarni keng qo’llash bo’ldi.

Bunda aholiga ijtimoiy xizmat ko’rsatish Rossiya olimlarining ba’zi ishlarida ijtimoiy ishning zamonaviy paradigmasi, boshqalarida esa, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda fuqarolarni samarali ijtimoiy qo’llab-quvvatlash imkonini beruvchi yuqori samarali ijtimoiy texnologiya sifatida, keyingilarida ijtimoiy sohaning juda muhim sektori sifatida ko’rib chiqiladi[16].

---

[16] Теория социальной работӯ. – М.: Юристъ, 1998, 203-б.

«Rossiya Federasiyasida aholiga ijtimoiy xizmat ko’rsatish asoslari to’g’risida» gi federal qonun bu masalada ma’lum aniqlik kiritadi. Unda ijtimoiy xizmat ko’rsatish ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, ijtimoiy, tibbiy, ruhiy, pedagogik, huquqiy yordam va murakkab turmush vaziyatidagi fuqarolarga yordam ko’rsatishning boshqa turlari bo’yicha ijtimoiy xizmatlar faoliyati sifatida aks ettiriladi.

Qonunda ijtimoiy xizmat turlari – moddiy yordam, uyda ijtimoiy xizmat ko’rsatish, stasionar sharoitida ijtimoiy xizmat ko’rsatish, maslahat yordami, fuqaro va oilalarning ijtimoiy patronajning mazmuni yoritiladi.

«Qariya va nogiron fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko’rsatish to’g’risida» gi federal qonun Rossiya jamiyati aholisi alohida ijtimoiy guruhlariga ijtimoiy xizmat ko’rsatish to’g’risidagi tasavvurlarni sezilarlicha to’ldiradi va aniqlashtiradi. U aholini ijtimoiy himoyalash bo’yicha faoliyat yo’nalishlaridan biri hisoblanuvchi qariya va nogiron fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko’rsatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga mo’ljallangan.

Davlat o’tish sharoitidagi iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, nogiron, yolg’iz va yordamga muhtoj qariyalarga alohida e’tibor qaratadi. Rossiyada qariya, jumladan nogironlarga nogironlarga ko’p bosqichli yordam ko’rsatish tizimi amal qiladi. 2002 yil davomida 14 mln. qariyaga turli ijtimoiy xizmatlar ko’rsatilgan. Mamlakatda yarim millionni tashkil etgan nogiron bolalar davlat tomonidan alohida qo’llab-quvvatlanadi.

Rossiya ijtimoiy xizmat ko’rsatish tizimining asosiy prinsiplari manzillilik, qulaylik, ixtiyoriylik, insoniylik, og’ir turmush sharoitidagi balog’atga yetmaganlar, qariya va nogironlarga ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish ustuvorligi; konfidensiallik; profilaktika yo’nalishi; inson va fuqarolik huquqiga rioya etish; ijtimoiy xizmat turlarining davomiyligi hisoblanadi[17].

Rossiya aholisiga zamonaviy ijtimoiy xizmat ko’rsatish tizimining muhim belgisi uning dinamik rivojlanayotgan infratuzilmasi hisoblanadi. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda mamlakatda yangi ijtimoiy (stasionarlar, yarim stasionarlar va

---

[17] Ўша жойда, 206 -б.

nostasionar) muassasalar tarmog'i yaratilgan. Bu yerda muhtojlar professional darajada zarur yordam va maslahat olishlari, qo'llab-quvvatlanishlari mumkin.

Qariya va nogiron fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish majmuaviy markazlari, aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish majmuaviy markazlari, aholiga ruhiy-pedagogik yordam berish markazlari, gerontologiya markazlari, balg'atga yetmaganlar uchun ijtimoiy reabilitasiya markazlari, bolalar va o'smirlar uchun mehribonlik uylari, oila va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish markazlari shunday muassasalar qatoriga kiradi.

*O'zbekistonda ijtimoiy ish.* Mamalakat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi, aholi bilan ishlashda fuqarolarni samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkonini beruvchi zamonaviy usul va texnologiyalarning qo'llanilishi.

Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish imkoniyati mahalliy boshqaruv organlari – hokimiyatlar va ijtimoiy ish, ijtimoiy pedagogika va amaliy ruhshunoslik sohasida hududiy ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish va rivojlantirish jihatidan reallashmoqda.

Hozirgi O'zbekiston sharoitida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi alohida shaxslar, oila yoki guruhlarning ijtimoiy reabilitasiyasi, moslashuviga yo'naltirilgan ijtimoiy-insonparvarlik faoliyatining alohida usullari tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

O'tish davridagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda O'zbekistonda yangi ijtimoiy muassasalar tarmog'i yaratildi, bu yerda muhtoj fuqarolar zarur yordam olishlari va qo'llab-quvvatlanishlari mumkin. Qariyalar, bolalar, nogironlarga g'amxo'rlik Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi tizimi, o'z-o'zini boshqarish jamoatchilik tashkilotlari (mahallalar), IIV muassasalari orqali amalga oshiriladi.

Bunday muassasalar qatoriga turli toifadagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari, aholiga ruhiy-pedagogik yordam markazlari, balog'atga yetmaganlar uchun ijtimoiy-reabilitasiya markazlari, oila va bolalarga ijtimoiy yordam hududiy markazlarini kiritish mumkin.

Xizmatlar ro'yxatini kengaytirish va parvarishga o'ta muhtoj fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatishni to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida hukumat

qaroriga ko'ra, o'z-o'zini boshqarish organlariga yolg'iz pensionerlar, qariyalar va nogironlarga uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish uchun vaqtincha haq to'lanadigan jamoatchilik ishlariga ishsiz fuqarolarni jalb etish huquqi berildi.

2003 yilda 5 ming 630 mahalla hududida 155 yangi ish o'rinlari tashkil etildi, 110 ming kam ta'minlangan fuqarolar ishga joylashtirildi.

Qariyalarga yordam ko'rsatish bo'yicha ikki yil avval boshlangan keng miqyosli faoliyat 25 mingdan ortiq yolg'iz pensioner va nogironga moddiy yordam, dori-darmon uchun qo'shimcha mablag'lar olish imkonini berdi. 28 mingdan ortiq yolg'iz qariya respublika ortopediya korxonasi va uning hududiy bo'linmalarida tibbiy tekshiruvdan o'tkazildi, 78 foiziga protezlar tayyorlandi[18].

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va mamlakat fuqarolarini ijtimoiy himoyalashni amalga oshirishda nodavlat tarmog'i salmoqli o'ringa ega bo'lmoqda. U kishilarning ijtimoiy ehtiyojlariga qayishqoqlik va tezkorlikda e'tibor beradi. So'nggi yillarda mahalliy va xorijiy nodavlat tashkilotlari doimiy ravishda ortmoqda.

Mamlakat aholisini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash kospleks dasturini tashkil etish zarurligi shubhasiz. Mamlakatimizning ijtimoiy siyosati shunga qaratirilgan. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ish o'zaro uzviy bog'liq. Ijtimoiy ish – ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning o'ziga xos shakli, ijtimoiy siyosat esa ijtimoiy ishning bo'g'ini, mo'ljali. Huquqiy, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning murakkab yo'lida mamlakatimiz uchun yangi faoliyat turini shakllantirish va rivojlantirish, malakali ijtimoiy xodimlarni tayyorlash lozim.

Hozirgi paytda respublikada ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyat turli soha mutaxassislari – sosiologlar, psixologlar, pedagoglar, huquqshunoslar va hokazolar tomonidan amalga oshiriladi. Shubhasiz, turli soha mutuxassislarini birlashtirish zarur. Biroq hozir mamlakat yangi marra: Ijtimoiy ish institutini yaratishga yaqinlashdi.

---

[18] Выступление Президента Ислама Каримова на торжественном собрании, посвященным 11-годовщине Конституции Республики Узекистан. // Народное слово, 6 декабря 2003 г.

Bunday institutni yaratish uchun hamma shart-sharoitlar mavjud: davlatning kuchli ijtimoiy siyosati, mahalliy hokimiyat idoralari ishi, turli jamoatchilik tashkilotlari faoliyati.

Ijtimoiy ish agentlarining sanab o'tilgan turlari orasida bir eng muhim bo'g'in: ijtimoiy ishning nazariy asoslovi yo'q. Ijtimoiy ishning nazariy asoslovini yangi yo'nalishdagi malakali mutaxassislar – ijtimoiy xodimlarni tayyorlashni kengaytirgan holda yaratish lozim.

## MAVZU: MEHNAT VA IQTISODIYOT

**Reja:**

**I. Kirish**

**II.Asosiy qism**

**1.  Kundalik tizimda mehnat va iqtisodiyot.**

**2. «Faoliyat» va «funksiya bajarish»**

**3. Mehnat  va iqtisodiyot  tushunchalari.**

**III.Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

# Kirish

Bir qarashdan, mehnat tushunchasi nimani anglatadi savolining javobi ayondek, chunki har birimiz bu tushunchaga har kuni duch kelamiz. Biroq adabiyotlarda mehnat tushunchasining aniq va bir xil ma'nodagi to'liqta'rifini topish ancha mushkul vazifadir.

Kundalik tilimizda «mehnat» so'zi bir necha ma'noga ega bo'lib, bu ma'nolar lug'at va ma'lumotnomalarda: 1) ishlab chiqarish qurollari yordamida odamlarning hayoti uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga qaratilgan insonning maqsadga muvofiq faoliyati; 2) ish, mashg'ulot; 3) nimagadir erishishga qaratilgan kuch-harakat; 4) faoliyat, ish natijasi, deb izoxlangan. Sho'rolar davrida «mehnat» tushunchasiga «insonning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatdagi narsalarni shaklan o'zgartirish va moslashtirish, deb talqin qilingan.

Mehnat g'oyat muhim umuminsoniy kategoriya bo'lib, u tadqiqan o'rganish va takomillashtirish predmeta sifatida har tomonlama ko'rib chiqishni talab qiluvchi ko'p qirrali tushunchadir. Inson va jamiyat hayoti va faoliyatining asosi bo'lgan mehnat haqidagi bilimlarni kengaytirishdan iborat obyektiv ehtiyoj mehnat iqtisodiyoti predmetini fan sifatida tayyorlashda yangi qirralar va imkoniyatlarni ochish uchun doimiy manba bo'lib xizmat qiladi. Buning sababi bir tomondan, umuman iqtisodiy nazariyaning rivojlanishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, fan-texnika taraqqiyotining mehnat samaradorligini oshiradigan va odamlarning yashash sharoitini yaxshilaydigan barcha vositalari rivojlanib borayotganligidir. Shu munosabat bilan mehnatning mohiyatini (iktisodiyot va unga aloqador boshqa fanlar nuqtai-nazaridan ochib-berish kerak bo'ladi.

Mehnat jarayonida inson organizmida yuz beradigan funksional o'zgarishlarni fiziologiya fanining maxsus sohasi — mehnat fiziologiyasi o'rganadi. Mehnat fiziologiyasi shaxsning fiziologik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish muhitining inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarini aniqlash va bartaraf etish, mehnat va dam olishning fiziologik asoslangan rejimlarini joriy

etish, toliqishni kamaytirish, og’ir jismoniy va qattiq akdiy mehnatni yengillashtiradigan texnika va texnologiya qo’llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi.

Mehnat iqtisodiyoti uch darajali bo’limni, ya’ni: mehnat mikro-iktisodiyoti, mehnat mezoiktisodiyoti va Mehnat iqtisodiyotini ajratishga asoslanadi (2.3-chizma).

Hal qilinadigan muammolar doirasi mushtarak bo’lgani hodda har bir daraja bo’yicha uning uchun asosiy bo’lgan muammolar hamda axborot almashinish va yondash darajalar bilan muvofiqlashtirish zarur bo’lgan muammolar ajratiladi. Chunonchi, mehnat mikroiqtisodiyotining iredmeti xodimlarning mehnat va ijodiy potensialini rivojlantirishdan, ulardan foydalanishdan, xodimlar bilan ishlash, mehnatni tashkil etish, normallashtirish va rag’batlantirish shakllarini yaxshilash tizimlarini qo’llanishi asosida mehnatning samaradorligi va daromadliliginy oshirish muammolarini qat’iyan, muayyan hal kilishdan iboratdir. Mehnat mezoiqtisodiyotining predmeti mehnat bozorlari iqtisodiyoti muammolarini va boshqa sosial muammolarni hududlar darajasida hal kilishdan iboratdir. Mehnat iqtisodiyotining predmeti iqtisodiyotni rivojlantirishning mexnat va sosial ko’rsatkichlarini belgilash, sosial-mehnat sohasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va uni boshqarishdan iborat.




*2.3-чизма.* **Меҳнат иқтисодиётининг даража бўлимлари.**

Mehnat mikroiqtisodiyoti muommalari, mikroiqtisodiyot sohasi alohida iqtisodiy subyektlar faoliyati bilan bog’liqligi jihatidan ajralib turadi. Bu subyektlar jumlasiga iste’molchilar, ishchilar, xizmatchilar, tadbirkorlar, sarmoya soluvchilar, firmalar, korxonalar — aslini olganda iktisodiyotning faoliyatida muhim rol o’ynaydigan har qanday individuum, jismoniy shaxs yoki xo’jalik yurituvchi subyekt

(yuridik shaxs) kiradi. Amerikalik olimlar R. Pindayk va D. Rubinfeld «Mikroiqtisodiyot» darsligida mikroiqtisodiyotning fan sifatidagi rolini quyidagicha ta’rif-laydilar: «Mikroiqtisodyyot quyi bosqichda iqtisodiy qarorlar qanday va nima sababdan qabul qilinishini tushuntirib beradi. Masalan, u iste’molchilar tovar xarid qilish haqidagi qarorni qanday qabul qilishlarini va narx-navo hamda ular oladigan daromadlarning o’zgarishi tovarni tanlashlariga qanday ta’sir ko’rsatishini; firmalar ishchilar sonini qanday rejalashtirishini hamda ishchilar qayerda va qancha ishlashlari kerakligini qanday hal qilishini tushuntirib beradi. Mikroiqtisodiyotning yana bir muhim jihati shuki, iktisodiyot subyektlari ancha yirik tuzilmalar — sanoat tarmokdarida bozorlar vujudga kelishi jarayonida o’zaro hamkorlik kiladi. Mikroiktisodiyot ayrim firma va iste’molchilar faoliyatini o’rganib, sanoat tarmoqlari va bozorlar qanday ishlashi va rivojlanishini, hukumat siyosati va boshqa mamlakatlardagi iqtisodiy shart-sharoitlar ular faoliyatiga qay tarzda ta’sir ko’rsatishini ochib beradi. Bundan farqpi o’laroq, makroiqtisodiyot umumiy iqtisodiy ko’rsatkichlar, jumladan, mamlakatda mehnat unumdorligining o’sish sur’atlari, foiz hisob-stavkalari, ishsizlik va inflyasiya bilan bog’liqdir. Lekin makroiqtisodiyot bilan mikroiktisodiyot o’rtasidagi farq keyingi yillarda tobora yo’qolib bormoq-da. Buning sababi shundaki, makroiktisodiyot ham umumiy bozorlar, masalan, tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va qimmatli qog’ozlar bozorlarini tahlil qiladi. Umumiy bozorlar qanday ish olib borishini tushunish uchun, avvalo, ushbu bozorlar ishida qatnashadigan firmalar, iste’molchilar, ishchilar, sarmoya soluvchilar xulq-atvorini o’rganish kerak. Shunday qilib, makroiqtisodiyot mutaxassislari borgan sari ko’proq mikroiqtisodiy asoslash bilan shug’ullanmoqsalar, makroiqtisodiyotning o’zi esa amalda mikroiqtisodiy tahlilning davomidir».

